

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XVII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

SENTYABR, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 17-son (14-sentyabr, 2026-yil).– 132 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 11-sentyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

YURIDIK FANLAR

1937 YILGI O'ZBEKISTON SSR KONSTITUTSIYASIDA SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI

Shomurodov Sanjar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Qonunchilik va huquqiy siyosat institutining mustaqil izlanuvchisi

Email: greatsanjar@gmail.com

Tel: +998 97 139 22 13

ORCID: 0009-0007-4518-2353

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Tezisdagi 1937 yil 14 fevralda qabul qilingan O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishning konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlari nuqtai nazaridan tadqiq etilgan. Hujjatning 126, 127, 130, 134 va 139-moddalari tahlili asosida o'zbek konstitutsiyaviy huquqi tarixida birinchi marta aynan shu Konstitutsiyada yozishmalar siri mustaqil himoya ob'ekti sifatida mustahkamlanganligi ko'rsatiladi. Shu bilan birga mazkur norma sub'ektiv huquq formulasiga, cheklash shartlariga va himoya mexanizmiga ega bo'lmagani sababli nominal xarakter kasb etgani asoslab beriladi. Tezisdagi kafolatlarning normativ, institutsional va texnologik elementlardan iborat uch elementli modeli retrospektiv qo'llanilib, 1937 yilgi hujjatda faqat normativ element, u ham nominal shaklda mavjud bo'lgani aniqlangan.

Kalit so'zlar: 1937 yilgi Konstitutsiya, shaxsga doir ma'lumotlar, yozishmalar siri, konstitutsiyaviy kafolat, sun'iy intellekt, nominal kafolat, profayling, axborot avtonomiyasi.

CONSTITUTIONAL GUARANTEES FOR THE PROTECTION OF PERSONAL DATA IN THE 1937 CONSTITUTION OF THE UZBEK SSR

Shomurodov Sanjar

Independent Researcher at the Institute of Legislation and Legal Policy

under the President of the Republic of Uzbekistan

Annotation. The thesis examines the Constitution of the Uzbek SSR, adopted on 14 February 1937, from the perspective of constitutional and legal guarantees for the protection of personal data. Based on an analysis of Articles 126, 127, 130, 134, and 139 of the Constitution, it is demonstrated that, for the first time in the history of Uzbek constitutional law, the secrecy of correspondence was expressly established as an independent object of legal protection. At the same time, it is argued that this provision was largely nominal in nature, since it was not formulated as a subjective right, did not define the conditions and limits of permissible restrictions, and was not supported by an effective legal protection mechanism. The thesis retrospectively applies a three-element model of guarantees comprising normative, institutional, and technological components and concludes that the 1937 Constitution contained only the normative element, which itself existed predominantly in a nominal form.

Keywords: 1937 Constitution, personal data, secrecy of correspondence, constitutional guarantee, artificial intelligence, nominal guarantee, profiling, informational autonomy.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymdif-y2026v2i17/n17>

Kirish. Sun'iy intellekt texnologiyalarining keng miqyosida joriy etilishi shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish masalasini konstitutsiyaviy huquqning markaziy muammolaridan biriga aylantirdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida har kimning shaxsiy hayoti daxlsizligi, yozishmalar siri va o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqi, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini hamda qonunga xilof yo'l bilan to'plangan ma'lumotlarning yo'q

qilinishini talab qilish huquqi mustahkamlangan [8]. Biroq bu norma birdaniga paydo bo'lmagan. 1937 yilgi Konstitutsiyada ayni huquq ilk bor qayd etilgan. Shu sababdan, ushbu hujjatni ko'rib chiqishni lozim topdik.

Asosiy qism. O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi 1937 yil 14 fevralda O'zbekiston SSR Sovetlarining Favqulodda VI s'ezdi tomonidan qabul qilingan. U 13 bob va 146 moddadan iborat bo'lib, 1936 yilgi SSSR Konstitutsiyasi andozasida tuzilgan [1]. Hujjat Toshkentda, KP(b)Uz MQ Partizdati tomonidan 1938 yilda 20.000 nusxada bosmadan chiqarilgan [2; 2-b.]. Matnning o'zbek konstitutsiyaviy huquqi uchun asosiy yangiligi X bobda "Fuqarolarning asosiy huquq va burchlari" (117–132-moddalar) bo'limida jamlangan.

127-moddada "fuqarolar turar joyining daxlsizligi va yozishmalar siri qonun bilan qo'riqlanadi" deb belgilangan [2; 21-b.]. 1927 yilgi Konstitutsiyada bunday mazmundagi norma umuman bo'lmagan. Demak, shaxsning axborot sohasini mustaqil konstitutsiyaviy himoya ob'ekti sifatida tan olish nuqtai nazaridan 1937 yil boshlang'ich nuqta. Ayni paytda bu norma SSSR Konstitutsiyasining 128-moddasidan so'zma-so'z respitsiya qilingan [1], ya'ni milliy huquqiy ijodning natijasi emas. Lekin retsepsiyaning o'zi ham ahamiyatli. U "turar joy daxlsizligi" va "yozishmalar siri" juftligini oliy hujjatda aks ettirgan bo'lsa, keyinchalik bu 1978, 1992 yilgi matnlar orqali amaldagi Konstitutsiyaning 31-moddasigacha yetib kelgan.

Shunga qaramasdan, 127-modda uchta muhim unsurdan mahrum. Birinchidan, unda sub'ektiv huquq formulasi ("har kim... huquqiga ega") yo'q. Ya'ni norma ob'ektga yo'naltirilgan bo'lib, himoyaning haqiqiy hajmi konstitutsiya darajasida emas, oddiy qonunchilik darajasida belgilangan. Ikkinchidan, cheklash shartlari (qonuniylik, legitim maqsad, mutanosiblik) ko'rsatilmagan. Demak, har qanday cheklash konstitutsiyaga zid deb baholanishi uchun o'lchov mezoni mavjud emas. Uchinchidan, himoya mexanizmi shaxsning davlatga nisbatan talab qo'yish imkoniyati nazarda tutilmagan. Bu jihatlar majmui mazkur normani nominal kafolat sifatida tasniflashga asos beradi. Taqqoslash uchun amaldagi 31-modda uchala unurni ham o'z ichiga oladi. Xususan, unda sub'ektiv huquq formulasi, cheklashning faqat qonunga muvofiq va sud qarori asosida yo'l qo'yilishi hamda tuzatish va yo'q qilishni talab qilish huquqi aniq ko'rsatilgan [4].

139-moddada "deputatlar saylovida ovoz berish yashirin bo'ladi" [2; 22-b.] deyiladi. 1927 yilgi tizimda saylov ko'p bosqichli va ochiq bo'lganini hisobga olsak, 1937 yilgi hujjat iroda ifodasining sir saqlanishini, ya'ni shaxsga doir ma'lumotning maxsus turini, konstitutsiyaviy darajada himoya qilgan ilk o'zbek akti hisoblanadi. Axborot avtonomiyasi g'oyasining ilk ko'rinishi aynan shu normada ko'rinadi.

Nazarimizda, eng muhim nuqta 134-moddaning tahlilidan kelib chiqadi. Unda saylov huquqi "irqiy va milliy mansubligi, diniy e'tiqodi, ma'lumot darajasi, o'troqligi, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli va o'tmishdagi faoliyatidan qat'i nazar" tan olingan [2; 22-b.]. Ushbu jumlarlar aslida juda munozaralidir. Yuzaki yondashsak, u kamsitmaslikni nazarda tutadi. Chuqurroq qarasak esa, davlat har bir fuqaro haqida aynan shu belgilar bo'yicha ma'lumot to'plagan va ularni hisobga olib borganini ko'rsatadi. Ya'ni demoqchimizki, nazarda tutilgan ushbu belgilarni "ahamiyatsiz" deb e'lon qilish uchun avvalo uni qayd etish lozim. Bundan tashqari, "sud tomonidan saylov huquqidan mahrum etilgan shaxslar" istisnosi davlat zimmasiga ana shunday shaxslarning doimiy ro'yxatini yuritish vazifasini yuklagan. Boshqacha aytganda, 1937 yilgi matn shaxsni ma'lum belgilar majmui orqali tasniflaydigan va shu tasnif asosida huquqiy maqomni belgilaydigan tizimni nazarda tutadi.

Bu yerda tarixiy inversiya yuzaga keladi. 1937 yilgi matnda huquqiy jihatdan "ahamiyatsiz" deb e'lon qilingan belgilar — irq, millat, diniy e'tiqod — bugungi kunda "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunda maxsus toifadagi ma'lumotlar sifatida kuchaytirilgan himoya ostiga olingan [5]. Ya'ni, 1937 yilda bu ma'lumotlarni to'plash cheklanmagan, ammo foydalanish "neytral" deb e'lon qilingan bo'lsa, hozirgi modelda to'plashning o'zi cheklangan va foydalanish nazorat ostiga olingan.

Aynan shu o'zgarish X. Nissenbaum taklif etgan kontekstual butunlik tamoyilining milliy huquqdagi ifodasidir [3].

130-moddaning ikkinchi qismida "jamoat, sotsialistik mulkka tajovuz qiluvchi shaxslar xalq dushmanlaridir" deb belgilangan [2; 21-b.]. Bu shaxsga huquqiy maqom darajasidagi stigmatik tamg'ani bevosita konstitutsiya matnida biriktirish holatidir. Bunda na protsessual kafolat, na tamg'ani rad etish imkoniyati nazarda tutilgan. Axborot-huquqiy nuqtai nazardan bu normani davlat tomonidan shaxsga nisbatan yakka tartibdagi baho belgilashning konstitutsiyaviy sanksiyasi deb talqin qilish mumkin. Sun'iy intellektga asoslangan skoring va riskni baholash tizimlari haqidagi bugungi munozarada bu norma eng ishonchli tarixiy ogohlantirish vazifasini bajaradi. Agar baho tizimi shaxsning e'tiroz bildirish imkoniyatidan mahrum etilsa, u qanday texnologik darajada bo'lmasin, huquqiy natijasi bir xil bo'ladi.

Xulosa. Birinchidan, 1937 yilgi O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi o'zbek konstitutsiyaviy huquqida axborotni mustaqil himoya ob'ekti sifatida tan olgan ilk hujjat bo'lib, shaxsga doir ma'lumotlar himoyasining genetik ildizi aynan shu yerda joylashgan. Ikkinchidan, bu tan olish nominal xarakterga ega bo'lgan, ya'ni ob'ekt konstitutsiyalashtirilgan, ammo talab konstitutsiyalashtirilmagan. Uchinchidan, sun'iy intellekt davrida kafolatlar tizimini to'ldirish uchun texnologik elementni konstitutsiyaviy darajada mustahkamlash zarur.

Bu borada avtomatlashtirilgan qarorga nisbatan inson tomonidan qayta ko'rib chiqilishini talab qilish huquqi va qaror asoslarining tushuntirilishi talabi konstitutsiyaviy kafolatning mustaqil unsuri sifatida qaralishi lozim deb hisoblaymiz. Aks holda 31-modda, xuddi 1937 yilgi 127-modda kabi, mazmunan to'g'ri, ammo amalda ishlaymaydigan normaga aylanish xavfi ostida qoladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Конституция (Основной Закон) Союза Советских Социалистических Республик. – М.: Юридическое издательство НКЮ СССР, 1937. – 32 с.
2. Конституция (Основной Закон) Узбекской Советской Социалистической Республики. – Ташкент: Партиздат ЦК КП(б)Уз, 1938. – 24 с.
3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. [Матн] Расмий нашр. — Т: "Ўзбекистон" нашриёти, 2023. — 80 б.
4. "Шахсга доир маълумотлар тўғрисида"ги Қонуни. ЎРҚ-547-сон // <https://lex.uz/docs/4396419>
5. Nissenbaum H. Privacy in Context: Technology, Policy, and the Integrity of Social Life. – Stanford: Stanford University Press, 2010. – 288 p.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XVII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, sentyabr

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.

2-jild, 17-son (14-sentyabr, 2026-yil). – 132 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 11-sentyabr.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.